

**VIII ASRDAN TO XII ASRGACHA O'RTA OSIYODA MUSULMON TA'LIM
TIZIMI ISLOM E'TIQODI TALABLARIGA ASOSLANGAN PEDAGOGIK
TA'LIMOTLAR SHAKLLANISHI**

Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna

SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi

Email: mardiyevayulduzxon82@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Arab xalifaligi O'rta Osiyo zabl etilgan davrdan boshlab musulmon ta'lismiz tizimi islomiy e'tiqodi talablari asoslangan pedagogik ta'lomitga izoh berilib, uni keltirib chiqaruvchi omillari ko'rsatilgan va buning natijasida yunon va arab madaniyati qorishmasida yangi ilk musulmonu pedagogikasiga asos solinganligi misollar orqali tushuntirib berilgan. Shu davrda musulmon ta'lim muassasalarining ikki turi: Maktab (dabariston) va Madrasa haqida atroflicha ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Arab xalifaligi, O'rta Osiyo, T.I.Raynov, G.A.Hidoyatov, maktab, madrasa.*

Аннотация: В данной статье, начиная с периода завоевания Арабским халифатом Средней Азии, объясняется мусульманская образовательная система, основанная на требованиях исламской веры, показаны факторы, ее вызывающие, и, как следствие, основа новой ранней мусульманской религии. педагогика на смеси греческой и арабской культуры. Объясняется на примерах. В этот период были даны подробные сведения о двух типах мусульманских учебных заведений: Мактабе (школе) и медресе.

Ключевые слова: *Арабский халифат, Средняя Азия, Т.И. Райнов, Г.А. Хидаятов, школа, медресе,*

Annotation: *In this article, from the period when the Arab caliphate conquered Central Asia, the Muslim educational system based on the requirements of the Islamic faith is explained, the factors that cause it are shown, and as a result, the basis of the new early Muslim pedagogy in the mixture of Greek and Arab culture. It is explained through examples. In this period, detailed information was given about two types of Muslim educational institutions: Maktab (school) and Madrasa.*

Key words: *Arab caliphate, Arab caliphate, Central Asia, T.I. Raynov, G.A. Hidayatov, school, madrasa,*

Arab xalifaligi O'rta Osiyoni zabl etgan davrdan boshlab, turkiy muhit o'zligini yuqotmadi. Balki, arab madaniyati bilan qorishib keta boshladi. Arab istilosidan so'ng bosib

olingen mamlakatlarning ma'naviy hayotida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar qishloqqa emas, asosan shahar jamoasiga ta'sir qildi. Istilodan so'ng 100 yil o'tgach, ko'pchilik shahar aholisi olimlar, savdogarlar, hunarmandlar musulmonchilikni qabul qilgan edilar [109:26]. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, ular din bilan birga arab tilini ham o'zlashtirib borganlar va insoniyat tomonidan yaratilgan umumbashariy qadriyatlar bilan tanishish, ulardan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Ilmu fan, ta'lim-tarbiya jarayoni qayerda zarur sharoit va qulay muhit yaratilsa, o'sha yerda taraqqiy etadi. Shu sababdan olimlar ham bugun bir yerda yashab, ijod qilsalar, ertasiga ijtimoiy kelishmovchiliklar ularni boshqa o'lkalarga, bir homiyidan boshqa homiyga borishga majbur qilgan.

Olim T.I.Raynovning yozishicha, o'sha davrlarda olimlar bittadan yoki kichik bir guruh bo'lib ko'chib yurganlar va maktablarda emas, balki ko'cha-ko'yda, duch kelgan joyda ilm o'rganib, ilm o'rgatganlar. Oddiy xalq ichidan chiqqan bolalarni savodli qilishda mana shu ko'chib yuruvchi olimlarning xizmati katta bo'lgan [85:9]. VIII asrdan to XII asrgacha O'rta Osiyoda kuchli ijtimoiy kurash sharoitida musulmon ta'lim tizimi islom e'tiqodi talablariga asoslangan pedagogik ta'limotlar shakllandi. Shu davrda musulmon ta'lim muassasalarining ikki turi: Maktab (dabariston) va Madrasa tashkil topdi. Maktablar (arab tilida- "yozish joyi") yoki dabariston (fors-tojik tilida - "kotiblar joyi") boshlang'ich ta'lim uchun xizmat qildi va VIII asrda xalifa buyrug'i bilan butun Arab xalifaligi hududidagi masjidlar qoshida tashkil qilindi.

O'rta Osiyoda bu maktablarning asosiy vazifasi yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishdan, ya'ni o'sib kelayotgan avlodga Turkiston sharoitiga moslashish, uyda, jamoat joylarida, mahallada, qishloqda o'zini tuta bilish, axloq va odob qoidalarini o'rgatib borishdan iborat bo'lgan. Maktablarda ta'lim individual tarzda, yakka yondashuv asosida olib borilgan. O'quvchilarda etiqodni, iymonni shakllantirish uchun ularda jannat, do'zax haqida, har bir yomonlikning bu dunyoda bo'lmasa, u dunyoda albatta jazolanishi uqtirilgan. Maktab muallimida 3 ta uzunligi 3 xil xivich bo'lgan. Sovet pedagogikasida bu xivichlar bolalarni jazolash uchun ishlataladigan qurol, deya tavsiflanardi. Lekin bu xivichlardan foydalanishdan maqsad, muallimga nisbatan turli uzoqlikda o'tirgan o'quvchilarni ovoz chiqarmay, xivichning uchini tekkazib chaqirishdan iborat bo'lgan. O'rta Osiyoda o'g'il bolalarning boshlang'ich diniy ta'lim olishlari majburiy bo'lgan.

Madrasa esa o'rta va oliy diniy maktab sifatida musulmon Sharqida juda katta ahamiyatga ega bo'lib, Misr, Shom, Mesopotamiya, Eronda emas, balki dastlab Xuroson hamda Movarounnahrda paydo bo'ldi. Tarixchi olim G.A.Hidoyatovning ta'kidlashicha, "madrasa Bag'dodda faqat XI asrda ochildi" [118:107]. Turkistonda arablar ko'proq shahar hayoti rivojga va shaharlar turini o'zgarishga imkon yaratdilar. Darhaqiqat, savdo-sotiqning

taraqqiy etishi, musulmon davlatlari o'rtaida qat'iy chegaraning yo'qligi va xalqaro savdo aloqalarining rivoji O'rta Osiyo shaharlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi, jumladan, XI-X asrlarda Buxoro, Samarqand, Mavr, Urganch, Shosh shaharlari boy madaniyat, ilm-fan, hamda tijorat markazlariga aylangan.

IX-asrda yangi feodal munosabatlarning shakllanishi jarayonida butun Arab xalifaligi tarkibidagi davlatlar siyosatida "vaqf" tushunchasi mavjud edi. "Vaqf" yoki "vuqf" atamasi bilan musulmon hukmdorlar tomonidan muassasalar, masjidlar, maktablar, kasalxonalar, Olloh yo'liga yoki ruhoniylar tasarrufiga berilgan yerlar, ko'chmas mulk, do'kon, karvonsaroy, hammom va boshqalar atalardi. Vaqfdan davlat hech qanday soliq undirmasdi, barcha daromad yoki tushum o'sha egalik qiluvchi muassasa yoki shaxs ixtiyorida bo'lardi [58:10]. Bu ham maktab va madrasalarni moddiy ta'minlashga, ta'lim-tarbiya ishlarini keng ko'lamda amalga oshirish uchun ko'mak berardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарапов О. ҳадисларда нафосат тарбияси. // Халқ таълими. -1997. - № 6. -Б. 30 -33.
2. Ўзбек Педагогикаси антологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1995.
3. Хайрулаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. -Т.: Фан, 1971. -43